

"ABULFAYZZON" DRAMASINING O'ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Saburova Umida Kuanishbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7492197>

Annotatsiya: Ushbu maqolada millatparvar yozuvchi, jadid adabiyoti namoyondasi Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi haqida so'z yuritiladi. Fitrat dramaturgiyasining ilk namunasi "Abulfayzzon" dramasi keng tahlil qilinadi. Dramada qatnashuvchi obrazlarga umumiy izoh beriladi va ayni o'sha davrdagi tarixiy voqea-jarayonlar haqida tushuncha beriladi.

Kalit so'zlar: Fitrat, drama, Ashtarxoniyalar, Abulfayzzon, hokimiyat, fojia.

O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat 1886-yil Buxoro shahrida tavallud topgan. Oilasi o'qimishli, o'ziga to'q insonlar edi. Otasining asosiy kasbi sarroflik bo'lib, kasb taqozosi tufayli Eron, Turkiya kabi shaharlarda tijorat bilan shug'ullangan. Fitrat oilada to'ng'ich farzand edi. Ijodkor avval eski maktabda, keyin esa Arab madrasasida ta'lim oladi. Otasi yonida tijorat bilan shug'ullanib Turkiya, Eron, Arabiston, Hindiston kabi davlatlarni ko'radi. 1909-yili Istanbul shahrida tahsil oldi. O'zga mamlakatlar madaniyatini o'rganish Fitratning fikrlash dunyosini ancha kengaytirdi.

Ayni o'sha vaqtda Buxoroda yuz berayotgan jaholat va qonunsizlik holatlari Fitratning asarlarida o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, dramaturgiya sohasida adibning "O'g'uzxon", "Chin sevish", "Abulfayzzon", "Shaytonning tangriga isyoni", "Arslon" kabi namunalari yetakchi o'rinni egallaydi. Ular orasida "Abulfayzzon" dramasi alohida e'tirofga loyiq. Drama 1924-yilda chop etilgan. Abdurauf Fitratning "Abulfayzzon" fojiasi ma'lum tarixiy davr asosida shakllantirilgan bo'lib, keskin voqealar tizmasidan iborat. Adabiy jarayon obrazlararo konflikt asosiga qurilgan. Abulfayzzon va Hakimbiy orasidagi o'zaro ziddiyatlar dramada o'ziga xos o'ringa ega. Asar mudhish bir ta'kid "Podshohlik-qon bilan sug'orilaturg'on bir og'ochdir", -degan mulohazaga asos sifatida qurilgan desak ham bo'ladi. Podshohlikning bunday ifodalanishi xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish "Uch og'a-ini botirlar" ertagida kenja botir tilidan aytilgan "Podshohlik -qonxo'rlik demakdir" ko'rinishida ham uchraydi. Toj-u taxt, boylik va mansab inson ko'zlarini ko'r qilib qo'yadi. Asardagi bosh obraz Abulfayzzon taxtga o'tirish uchun o'z akasining qotiliga aylanadi. Ammo xudbinlik, mutlaqo shaxsiy manfaatlar asosiga qurilgan bu hokimiyat uzoqqa

bormaydi. Atrofdagi ikkiyuzlamachi xoinlar va o'zining shoh nuqtayi nazaridan mutlaqo xoli bo'lgan xarakteri hokimiyatni tanazzulga boshladi.

Drama Mir Vafo va Qozi Nizom kabi amaldorlarning shaxmat o'ynash jarayoni bilan boshlanadi. Bu jarayon ramziy ma'noga ega bo'lib, o'zaro qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. Shuningdek, yuqori martabali mulozimlarning ayni paytdagi bekorchi va maishatparastligini izohlaydi. Xon atrofi vaqt o'tishi bilan sotqinlarga to'lib boradi. Eng yaqin odami Hakimbiy Eron shohi bilan o'zaro sulh tuzadi. O'z shaxsiy manfaati yo'lida vataniga xiyonat qilishdan ham toymadi. Hakimbiy Nodirshohdan taxtga o'g'li Rahimbiyni o'tkazish va'dasini oladi va buning evaziga Abulfayzxon hokimiyatining sir-asrorlarini Eron shohi Nodirshohga yetkazadi. Keyingi bo'limlarda xonning afsus -nadamatlari izohlanadi. Yurt boshqaruvi Rahimbiyning qo'lga o'tadi. Abulfayzxon uy qamog'ida saqlanadi. Rahimbiy va Abulfayzxon uchrashuvi epizodida xon Rahimbiy va uning yaqinlariga nisbatan qilgan yaxshiliklarini ro'kach qiladi. Ammo xonning olib borgan johilona siyosati, adolatsizlik, qonxo'rlik asosiga qurilgan hukumat bora-bora qanday ahvolga olib kelishini anglab yetish qiyin emas. Asarda zamon ahvolidan norozi, Vatan osudaligi uchun kuyingan kishilar obrazi Ibrohimbiy obrazi orqali tasvirlangan.

Taqdir taqozosi bilan Ibrohimbiyning ko'zi ojiz bo'lib qoladi. Lekin Ibrohimbiy ma'naviy mukammallikka ega inson edi. Buni Rahimbiy bilan bo'lgan suhbatidan ham bilish mumkin ya'ni Abulfayzxon tushurilgach qurultoy chaqirish va xon bilan otalig'ini xon kengashi yordamida aniqlash zarur ekanligini eslatib o'tadi. Shuningdek, Rahimbiy o'n besh yoshli Abdulmo'minni taxtga o'tqazishidan asosiy maqsadni ham yaxshi anglab yetadi. Rahimbiy mol-dunyo, toj-u taxtga shu darajada xirs qo'yganki, bu yo'lda murg'ak Abdulmo'minni halok qilishdan ham toymaydi. Aslida bu kabi salbiy holatlarning asosiy sababchisi sifatida Abulfayzxonni ko'rish mumkin. Chunki, u hokimiyat yo'lida akasini qurbon qildi. Xonlik qarorlarini chiqarish borasida o'ziga nisbatan qarshi fikr bildirilgan fikrlar tufayli bir necha amaldorlar qotiliga aylandi. O'z hokimiyatini mutlaqo adolatsizlik, qonxo'rlik asosiga qurdi. Oxirgi sahnada Rahimbiy oldida ramziy obraz-xayol paydo bo'ladi. Xayol obrazi Rahimbiyning vijdonini uyg'otadi. Fitrat Abulfayzxon dramasi o'n sakkizinchi asrda Buxoroda hukm surgan Ashtarxoniylar sulolasi va ayni damdagi Buxoro tarixida ro'y bergan o'zaro ziddiyatlarni keng ko'lamda ifodalab bergan. Real tarixiy obrazlar asosida to'qima obrazlardan foydalangan. Bu esa asar ta'sirchanligini ta'minlab berdi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Abulfayzxon dramasi o'z negizida qonxo'r, xiyonatkor, kaltabin va adolatsiz xon hamda uning hokimiyati, uning tanazullini shakllantirib bergan ijtimoiy- tarixiy asar. Aslida Abulfayzxon mamlakatda

nufuzi yuqori bo'lgan amir va zodagonlar qo'lidagi qo'g'irchoq hukmdor edi. Ayni shu jihatlar ham uning ijtimoiy mavqeyini past darajada ifodalaydi. Asar qahramonlarining mohiyati bir yo'nalishda, lekin ular xuddi hayotdagidek o'ziga xos fe'l-atvor orqali ko'rsatiladi. Abulfayzxon tragediyasi o'zbek adabiyotining zavol bilmas namunalarini qatoridan joy oldi. Fitrat asarlari o'zidan keyingi adiblar ijodi uchun ham mahorat maktabini o'taydi. Fitrat jonkuyar, o'z millati ravnaqi uchun jon kuydiradigan shaxs. Shuning uchun ham Abulfayzxon dramasi asosida jamiyatimizni parokanda qiladigan sotqinlik, xudbinlik va maishatparastlik kabi illatlarni qoralaydi

Insoniyatni ogohlikka chorlaydi. Fitratga qadar o'zbek adabiyotida bir necha dramatik asarlar yozilgan. Biroq jahon talabiga javob bera oladigan milliy ruh va milliy g'oya bilan sug'orilgan, teran qahramonlar aks etgan bu turdagi yetuk asarlarning muallifi sifatida Fitrat o'zbek dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. Fitrat elni ozod va obod ko'rish dardi bilan yonib yashadi. Yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda ona tili va badiiy adabiyotga nisbatan muhabbatni shakllantirishda Abdurauf Fitratning asarlari katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat Fitrat iste'dodli ijodkor, millat ozodligi uchun kurashgan jadid yozuvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. To'xliyev, B. Karimov, K. Usmonova "Adabiyot" 11-sinf uchun darslik 2-jild Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2018
2. A. Fitrat. "Abulfayzxon" Toshkent-2000
3. www.ziyouz.com internet sayti.